Sevarova Maftuna Tuymurod qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (ma’naviyat asoslari) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

HUQUQ–ERKINLIKNING TILI: NEGA HAMMA BU TILDA GAPIRA OLISHI KERAK?

Annotatsiya

“Huquq– erkinlikning tili: nega hamma bu tilda gapira olishi kerak” mavzusidagi maqola huquqiy savodxonlikni shaxs erkinligini ta’minlovchi asosiy muloqot vositasi va mustabidlikdan himoya qiluvchi qalqon sifatida tahlil qiladi. Maqolada huquqni jamiyat a’zolari o‘z haq-huquqlarini himoya qilish uchun foydalanishi shart bo‘lgan til tushunchasiga qiyoslanib, huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar

Huquqiy savodxonlik, shaxs erkinligi, huquq tili, ijtimoiy adolat, fuqarolik jamiyati, huquqiy madaniyat, inson huquqlari, muloqot vositasi, huquqiy himoya, demokratiya.

Аннотация

Статья на тему «Право – язык свободы: почему каждый должен уметь говорить на этом языке» анализирует правовую грамотность как основное средство коммуникации, обеспечивающее свободу личности, и как щит, защищающий от произвола. В статье право сравнивается с понятием языка, которым члены общества обязаны владеть для защиты своих прав, а также освещаются вопросы повышения правовой культуры.

Ключевые слова

Правовая грамотность, свобода личности, язык права, социальная справедливость, гражданское общество, правовая культура, права человека, средство общения, правовая защита, демократия.

Abstract

The article titled "Law – The Language of Freedom: Why Everyone Should Be Able to Speak This Language" analyzes legal literacy as a primary tool of communication that ensures individual freedom and acts as a shield against tyranny. The article compares law to the concept of a language that members of society must use to protect their rights, while also highlighting issues of enhancing legal culture.

Keywords

Legal literacy, individual freedom, language of law, social justice, civil society, legal culture, human rights, tool of communication, legal protection, democracy.

Kirish

Inson bo‘lib tug‘ilish –bu shunchaki biologik hodisa emas, balki muayyan huquq va erkinliklar bilan qurollangan holda dunyoga kelish demakdir. Bugungi shiddatli davrda inson huquqlari shunchaki qonun kitoblaridagi quruq moddalar emas, balki shaxsning o‘zligini anglatuvchi jonli muloqot tiliga aylandi. Huquqni “erkinlik tili” deb atash bejiz emas. Agar erkinlik bizning xohishlarimiz bo‘lsa, huquq shu xohishlarni haqiqatga aylantiruvchi va himoya qiluvchi qoidalardir. Hamma bu tilda gapira olishi kerak bo‘lgan asosiy sabablar mavjud bo‘lib, ular adolatli muloqot, o‘zini himoya qilish vositasi, mas’uliyatli erkinlik, davlat boshqaruvidagi ishtirokdir. Ronald Dvorkin o‘zining “Huquq saltanati” asarida huquqni jamiyatni birlashtiruvchi va har bir shaxsning qadr-qimmatini himoya qiluvchi kuch deb ta’riflaydi. Uning fikricha, huquq –bu shunchaki qoidalar yig‘indisi emas, balki adolat va tenglikni ifodalovchi til bo‘lib, u orqali fuqarolar o‘z haq-huquqlarini talab qiladilar. Uning g‘oyasiga ko‘ra, har bir inson jamiyatdan o‘ziga nisbatan hurmat talab qilishga haqli [1, Ronald Dvorkin “Huquq saltanati”, AQSh– Belknap Press (1986), 224-bet].

Agar biz huquq tilida gapira olsak, davlat yoki boshqa shaxslar oldida “iltimos qiluvchi” emas, balki o‘z haqini munosib tarzda “talab qiluvchi” shaxsga aylanamiz.

Huquqni bilish– bu shunchaki qonunlarni yod olish emas, balki o‘z qadr-qimmati va imkoniyatlarini anglagan holda ulardan to‘g‘ri va oqilona foydalana olish demakdir. Huquqiy savodxonlik bu – “qalqon”. Inson o’z huquqlarini bilmasa, boshqalarning (davlat, ish beruvchi yoki shaxsning) nohaqligiga qarshi tura olmaydi. Huquq tilini bilish bizni manipulyatsiya va ekspluatatsiya ta’siriga tushib qolishimizdan asraydi.

Jamiyatda har xil manfaatlar to‘qnashadi. Tomonlar bir-birini tushunishi va muammolarni kuch ishlatmasdan, madaniyat bilan hal qilishi uchun yagona hisoblanadigan umumiy til bu huquqdir. Erkinlik– bu xohlagan ishni qilish emas, balki boshqalarning erkinligini cheklamagan holda yashashdir. Viktor Gyugo erkinlik va huquqiy ongni bog‘lab, shunday degan: “Erkinlik johillik tugagan joydan boshlanadi. Chunki johilga erkinlik berish, jinniga qurol berish bilan barobardir” [2, Viktor Gyugo “Xo‘rlanganlar”, T–“Yangi asr avlodi” (2017), 4-qism 7-kitob].

Uning fikricha, ilm yo‘q joyda erkinlik xavfli bo‘lib qoladi. Huquqiy savodsizlik insonni manipulyatsiya obyektiga aylantiradi. Inson o‘z huquqini bilmasa, unga qilingan har qanday nohaqlikni “taqdir” yoki “norma” deb qabul qila boshlaydi. Huquq tili esa bizga : “To‘xta, senga bunday munosabatda bo‘lishga hech kimning haqi yo‘q!” deb aytishni o‘rgatadi. Huquq tilini bilish sizga qayerda sizning erkinligingiz tugashi va boshqasiniki boshlanishini ko‘rsatadi. Agar fuqarolar huquq tilida gapirmasa, ular qonunlar qanday qabul qilinayotganini va ular qanday ishlayotganini tushunmaydi. Bu esa davlat ustidan jamoatchilik nazoratini yo‘qqa chiqaradi.

O‘zbekistonlik huquqshunoslarning qarashlarida huquq– bu davlat va xalq o‘rtasidagi “muloqot vositasi”dir. Agar fuqaro qonun tilini tushunsa, mamlakatda nimalar bo‘layotganini anglaydi, islohotlarga shunchaki tomoshabin bo‘lib emas, balki jarayon ishtirokchisi sifatida qaraydi. Bu til bizni jamiyatning to‘laqonli a’zosiga aylantiradi. O‘z huquqlarimizni bilishimiz, qonunlarni anglashimiz– bu huquqshunos bo‘lish degani emas. Bu shunchaki o‘zining insoniy qadrini, chegaralarini va mas’uliyatini tushunishdir. Bu tilda gapiradigan jamiyatda kuchlilar emas, balki haqlar ustun bo‘ladi [3, J.Yoqubov, E.Hayitboyev “Huquqshunoslik”, “Yangi asr avlodi” (2006), 41-bet].

Huquqning erkinlik tili ekanligini quruq gaplar emas, balki tarixning burilish nuqtalari va kundalik hayotdagi oddiy vaziyatlar buni yaqqol isbotlaydi. “Erkinlikning buyuk xartiyasi” (1215-yil) huquq tarixidagi eng kata burilishdir. Angliya qiroli o‘zini cheksiz hokimiyat egasi

deb hisoblagan, biroq aslzodalar uni qonunlarga bo‘ysunishga majbur qilishgan. Bu “Hech kim qonundan ustun emas” degan tamoyilning dunyoga kelishi edi. Huquq tili birinchi marta mutloq hokimiyatni jilovlab, inson erkinligi uchun maydon yaratgan.

Ernesto Miranda ismli shaxs o‘z huquqlarini bilmagani sababli o‘ziga qarshi ko‘rsatma beradi. Oliy sud bu qarorni bekor qilib, politsiya hibsga olingan shaxsga uning sukut saqlash va advokat olish huquqi borligini tushuntirishi shartligini belgilaydi. Bu voqea huquq– zaiflarni kuchlilardan himoya qiluvchi vosita ekanini butun dunyoga ko‘rsatib berdi.

Sudya Learned Hand: “Erkinlik tushunchasi erkak va ayollarning qalblarida yashaydi. Agar u uyerda o‘lsa, hech qanday konstitutsiya, hech qanday qonun va hech qanday sud unga yordam bera olmaydi”,- deya ta’kidlagan [4, Hand L. The spirit of Liberty(21-may, 1944-yildagi nutq), New York: Alfred A.Knopf nashriyoti–1960, 190-bet].

Hayotimizdagi amaliy misollardan ham ko‘rib o‘tamiz. Tasavvur qiling, ish beruvchi xodimni hech qanday sababsiz va tovon pulisiz bo‘shatmoqchi. Agar xodim o‘z huquqlarini (Mehnat kodeksini) bilmasa, u shunchaki xo‘rsinib chiqib ketadi. Ammo u buni bilsa: “Mehnat shartnomasi qonunga zid ravishda bekor qilinmoqda, men sudga murojaat qilaman”,-deydi. Bu yerda huquq iqtisodiy erkinlikni saqlab qoladi. Yoki bo‘lmasa siz sifatsiz mahsulot sotib oldingiz va do’kon uni qaytarib olishdan bosh tortdi. Siz “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunni eslatganingizda, sotuvchi bilan muloqotingiz darajasi o‘zgaradi. Huquq bu yerda ham aldovdan himoya qiluvchi filtr vazifasini o‘taydi.

Xulosa

Bugungi kunda shaxsiy ma’lumotlarimiz (rasmlar, yozishmalar) tarqalib ketishidan qo‘rqamiz. Agar biz shaxsiy daxlsizlik huquqimizni bilsak, ijtimoiy tarmoqlar yoki kompaniyalardan ma’lumotlarimizni himoya qilishni talab qila olamiz. Huquq esa bizga hattoki, virtual dunyoda ham erkin bo‘lish imkonini beradi. Fitrat huquqni millatning yashash sharti va ozodlik kaliti deb bilgan: “Har bir millat o‘z haqini o‘zi himoya qilmasa, uning haqi poymol bo‘laveradi. Huquq– bu shunchaki qog‘ozdagi gap emas, u ozod yashashning amaliy vositasidir ” [5, Fitrat A. Tanlangan asarlar. 2-jild: Ilmiy va publitsistik maqolalar, ma’ruzalar.–Toshkent: Ma’naviyat, 2000.–45-bet].

Agar jamiyatning 90 foizi bo‘lsa ham huquq tilini bilmasa, qolgan 10 foiz(huquqini biladiganlar) ularni boshqarishi yoki suiste’mol qilishi juda oson bo‘ladi. Tarix shuni ko‘rsatadiki, qayerda huquq va erkinliklar unutilsa, o‘sha yerda diktatura va jabr-zulm boshlanadi.

Huquq bu shunchaki qonun va qoidalar mavjud tizim emas, balki bu bizning jamiyatdagi “immunitetimiz”dir. Immuniteti past odam kasallikka tez chalinganidek, huquqiy bilimi va huquqiy madaniyati yo‘q shaxs ham adolatsizlikka tez taslim bo‘ladi.

Demak, huquq erkinlikni cheklamaydi, aksincha, uning chegaralarini belgilash orqali har bir shaxsning iroda erkinligini boshqalar tomonidan daxlsiz qilinishini kafolatlaydi. Erkinlik faqat huquq tili bilan so‘zlagandagina o‘zining haqiqiy kuchini ko‘rsatadi va ijtimoiy adolatga tayanadi. Shunday ekan, bizning maqsadimiz– huquq va erkinliklar yordamida inson qadr-qimmati ulug‘lanadigan yuksak huquqiy madaniyatni barpo etishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ronald Dvorkin “Huquq saltanati”, AQSh–Belknap Press (1986), 224-bet.
2. Viktor Gyugo “Xo‘rlanganlar”, T– “Yangi asr avlodi” (2017), 4-qism 7-kitob.

3. J.Yoqubov, E.Hayitboyev “Huquqshunoslik”, “Yangi asr avlodi” (2006), 41-bet.
4. Hand L. The spirit of Liberty(21-may, 1944-yildagi nutq), New York: Alfred A.Knopf nashriyoti–1960, 190-bet].
5. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 2-jild: Ilmiy va publitsistik maqolalar, ma’ruzalar.–Toshkent: Ma’naviyat, 2000.–45-bet.